

TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA AXLOQIY BILIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Muzaffarov Samandar Izbasarovich

Jizzax viloyat oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi bosh mutaxassisi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada axloqiy bilimlar, axloqiy ijodkorlik natijalarining ta'lim-tarbiya jarayonida muhim ekanligi ochib berilgan. Axloqiy ijodkorlik natijalarini tizimli o'rganish zarur. Axloqiy ijodkorlik natijalari – axloqiy bilimlar, xususan normalar, axloqiy madaniyatning manba va vositalari funksiyalarini bajaradi. Maqolada axloqiy ijodkorlik natijalarining hayotga tadbiiq etilishi individual munosabatlar orqali amalga oshirishini aniqlashtirib olish va uni asoslash maqsad qilingan.

Tayanch so'zlar: axloq, axloqiy madaniyat, substansiya, ta'lim, axloqiy hayot, axloqiy tarbiya, axloqiy ijodkorlik natijalari, axloqiy bilim, axloqiy norma, axloqiy tamoyillar, axloqiy normalar.

Ta'lim va tarbiya jarayonida axloqiy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Axloqiy ijodkorlik natijalari bir necha tizimlarga bo'linib ketadi hamda bir tarkibiy qismlar elementlardan tashkil topgan.

Axloqiy ijodkorlik natijalari, birinchidan axloqiy bilimlarni ikkinchidan, axloqiy xususiyatlarga ega odat-udumlarni va uchinchidan, axloqiy xususiyatlarga ega muassasalarni o'z ichiga oladi. Bu axloqiy ijodkorlik natijalari, o'z ontologik mohiyatiga ko'ra kundalik ijtimoiy munosabatlar asosida shakllangan va takomillashib, o'zgarib boruvchi axloqiy ong mahsullaridir. Chunki turli xil o'gitlar, maqol, masallar va urf-odatlar kundalik axloqiy ong natijalari hisoblanadi. Axloqiy kategoriyalar va prinsiplar nazariy axloqiy ongning mahsullaridir. Axloqiy normalar va ularga zid illatlar, tashkilot esa ham kundalik, ham nazariy axloqiy ong natijalari yoki ular orqali yuzaga kelgan, deb hisoblanadi. Axloqiy ijodkorlik natijalariga ko'ra bir butun sistema sifatida axloqiy hayotning yadrosi – axloqiy madaniyatning tarkibiy qismidir. U axloqiy madaniyatning beshinchi sistema tashkil etuvchi substansional elementidir. Axloqiy ijodkorlik natijalari uch turkum hodisa – axloqiy bilimlar, axloqqa oid urf-odatlar va muassasa tashkilotlarni o'z ichiga oladi. U jamiyat axloqiy madaniyati tizimida faoliyat uchun manba va vosita vazifalarini bajaradi.

E'tiborni axloqiy ijodkorlik natijalarining birinchi qismi – axloqiy bilimlarga qarataylik. Axloqiy bilimlar axloqiy dunyoqarashning markaziy qismini tashkil etadi. Chunki axloqiy dunyoqarash bu axloqiy bilimlardan tashqari axloqiy psixologiyani ham o'z ichiga oladi. Axloqiy bilimlar, birinchidan, umuminsoniy axloqqa zid ravishda shakllangan normalarni, ikkinchidan, axloqiy prinsiplarni, uchinchidan, axloqiy qonuniyatlar to'g'risidagi bilimlarni, to'rtinchidan axloqiy kategoriyalardan va beshinchidan, ushbu asosiy o'zak bo'luvchi axloqiy bilimlar negizida shakllanib boruvchi va bu bilimlarni ham o'z ichiga oluvchi bir butun axloqiy dunyoqarashdan tashkil topgan. Axloqiy ong va shu asosda shakllanuvchi axloqiy dunyoqarash axloqiy madaniyatning uchinchi substansional va yakun sifatida to'rtinchi substansional elementidir.

Tahlilni konkretlikdan abstraktlikka va undan konkretlikka tomon borish usuliga tayangan holda amalga oshiramiz, chunki mohiyatdan qonuniyatlar, qonuniyatlardan prinsiplar va ulardan normalar shakllanadi [1,53]. Axloqiy madaniyat ijtimoiy munosabatlarni jamoat izzasi darajasidagi o'gitlar vositasida tartibga solishdir. Ushbu bazis, ya'ni axloqiy mohiyat asosida axloqning tub substansional va boshqa qonuniyatlari kelib chiqadi. Mazkur qonuniyatlar ilk bora bizning tadqiqotimizda ko'rib chiqilmoqda. Tadqiqotda axloqiy qonuniyatlar axloq prinsiplariga nisbatan, axloq prinsiplari esa axloq normalariga nisbatan negiz bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun, yuqorida ta'kidlaganimizdek, tahlilni axloqiy normalardan boshladik. Axloqiy normalar bevosita individual munosabatlarni konkret hodisalarni ifodalaydi. Bilishda, birinchidan, hodisadan mohiyat tomon va aksincha ikkinchidan, mohiyatdan hodisa tomon boriladi.

Koncretlikdan abstraktlikka va undan konkretlikka tomon borish usuli bilishning yuqoridagi tendensiyasini ifodalaydi. Bu usulni axloqiy ijodkorlik natijalariga ham qo'llasa bo'ladi. Chunki axloqiy ijodkorlik natijalari ham bir butun jamiyat axloqiy madaniyatining tarkibiy qismlaridan iborat o'ziga xos bir butunlikka egadir. Chunki axloqiy ijodkorlik natijalarida ham genetik bog'lanishlar mavjud: axloqiy bilimlardan axloqqa oid udumlar va har ikkalasidan ham ularga oid tashkilotlar kelib chiqadi. Axloqiy ijodkorlikning bu sanab o'tilgan natijalari axloqiy ustqurmaviy

hodisalardir, ular axloqiy bazis negizida ketma-ket shakllangan. Axloqiy bazis esa ijtimoiy munosabatlarning barchasiga xos bo'lib, ularning muayyan ko'zga ko'rinmas obyektiv momentlaridir, ya'ni jamoat tanbehigacha bo'lgan darajadagi tartibga solishga bo'lgan ehtiyojlardir. Ularda taqazo qilinganlik mavjud, shuning uchun ham ular axloqiy bazisdirlar. Axloqiy bilimlarning birinchi qismi – axloqiy normalar namoyon bo'lishlarida hodisalarga boyligi bilan ajralib turadi. “Norma” lotincha (norma – me'yor, o'lchov, qoida, qonun) so'z bo'lib, o'zbek tilida:

- 1) rasmiylashtirilgan qonun-qoida;
- 2) umum tomondan qabul qilingan va tan olingan, hamma uchun majburiy hisoblangan, qonun hukmiga kirgan tartib-qoida;
- 3) biror narsaning, ishning aniq belgilangan o'lchami, miqdori, me'yori degan ma'nolarni anglatadi [2,60].

Axloqiy normalar ayni vaqtda umuminsoniy axloqqa zid illatlarga nisbatan ham shakllangan [3,59]. Ilmiy adabiyotlarda ular tur va jinslarga ko'ra tizimlashtirilmagan. Biz ushbu vazifani bajarishga harakat qildik.

Umuminsoniy axloqqa zid illatlarning **birinchi turkumi** loqaydlikka oid bo'lib, bu turkum o'z ichiga beg'amlik, beparvolik, loqaydlik, bekorchilik, tanballik kabi salbiy xususiyatlarni oladi.

Umuminsoniy axloqqa zid illatlarning **ikkinchi turkumi** beburdlikka oid bo'lib, u beburdlik, qo'rqqoqlik, pastkashlik, fohishabozlik, yolg'ochilik kabi salbiy xususiyatlardan iborat.

Umuminsoniy axloqqa zid illatlarning **uchinchi turkumi** soxtalikka oid bo'lib, bachkanalik, arazlash, bachkanalik, ikkiyuzlamachilik, laganbardorlik, lo'ttibozlik, oliftagarchilik, surbetlik kabi salbiy jihatlarni qamrab oladi.

Umuminsoniy axloqqa zid illatlarning **to'rtinchi turkumi** johillikka oid bo'lib, ular ablahlik, battollik, bemehrlik, dilozorlik, g'iybatchilik, xiyonat kabilardir.

Umuminsoniy axloqqa zid illatlarning **beshinchi turkumi** egoizmga oid bo'lib, u manmanlik, maqtonchoqlik, dimog'dorlik, individualizm, takabburlik, muttahamlik, qaysarlik, shuhratparastlik, ta'magirlik, poraxo'rlik, mansabparastlik, tekinox'rlik kabi ko'rinishlarga ega.

Umuminsoniy axloqqa zid illatlarning **oltinchi turkumi** adovatchilikka oid bo'lib, u adovat, baxillik, munofiqlik, bo'hton, fisqu-fasod, chaqimchilik, g'arazgo'ylik kabi ko'rinishlarga ega.

Umuminsoniy axloqqa zid illatlarning **yettinchi turkumi** sitamgarchilikka oid bo'lib, uning ko'rinishlari sitam o'tkazish, zulm, g'azab, haqorat, bezorilik, nafrat, xo'rlik, shafqatsizlik, qabohat, razillik kabilardir.

Xullas, “illat” so'zi tanadagi dard, kasallik, xastalik, jimoniy va ruhiy kamchilik, nuqson, ayb hamda biror ishga, holga sabab bo'lgan buzqlik, balo, ofat degan ma'nolarni anglatadi. Shunga ko'ra, umuminsoniy odob-axloq prinsiplari va normalari darajasiga sig'maydigan, unga xilof ravishda sodir etiladigan yaramas xatti-harakatlarga nisbatan ham ishlatiladi. [4,153].

Umuminsoniy axloq normalari esa, umuminsoniy axloqqa zid illatlarga qarama-qarshi o'laroq har bir inson, elat, millat, xalq, davlat va turli xil shakldagi moddiy va ma'naviy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi ijtimoiy guruhlarining iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, texnikaviy munosabatlarni jamiyatning axloqiy talablaridan kelib chiqqan holda tartibga soluvchi axloqiy ma'naviy qonun-qoidalarining muayyan tizimidir [4,86-87]. Agar umuminsoniy axloq normalarni turkumlasak quyidagi ko'rinishlarni beradi:

1. **Kamtarlik va halollikka oid normalar.** Ular beg'arazlik, hissiyotga berilmaslik, bosiqlik, axloqiy poklik, halollik, rostgo'ylik, o'zini tuta bilish, va'daga vafo, oilaviy va kasbiy majburiyatlarni unutmaslik, nafsni tiya bilish, dil pokligi, zararli odatlardan saqlanish, insoniylik kabilardir. Bu axloqiy normalar manmanlik, manfaatparastlik va sitam o'tkazish illatlariga nisbatan ham shakllangan fazilatlaridir.
2. **Xushmuomalalik va odoblilikka oid normalar.** Ular kattalarga hurmatda va kichiklarga izzatda bo'lish, bag'rikenglik, farosatlilik, do'stona munosabat, insoniylik, iltifot, iftixorlilik, iffatli bo'lish, mehribonlik, odoblilik, shirinso'zlik, oliyjanoblik, hamdardlik, xayrihohlik, halimlilik, himmatlilik, oddiylik,

- oqko'ngillilik, saxiylik, xatolardan pushaymon bo'la bilish, sirni saqlay bilish, saxovatlik, takalluflik kabilardir. Bu axloqiy normalar adovat va sitamga oid illatlarga nisbatan ham shakllangan fazilatlaridir.
3. **Shijoatlilikka oid axloqiy normalar.** Ular shijoat, mardlik, ziyraklik, fidoyilik, g'ayratlik, mehnatsevarlik, shafqatlik, jasorat kabilardir. Bu axloqiy normalar loqaydlik, adovatchilik va sitamgarchilik oid illatlarga nisbatan shakllangan.
 4. **Samimiylikka oid axloqiy normalar.** Ular manmanlik, johillik va soxtalikka oid illatlarga nisbatan ham shakllangandirlar. Andishali bo'lish, mehribonlik, muruvvatlik, oddiylik, hojatbarorlik kabilar samimiylikka oid axloqiy normalardir.
 5. **Sobitqadamlilikka oid axloqiy normalar.** Ular sobitqadamlilik, matonat, sukunat, vazminlik, sabr-qanoat kabilardir. Ular johillik, egoizm kabi umuminsoniy illatlarga nisbatan ham shakllangan.

Axloqiy normalar kishilarning xatti-harakatlarida namoyon bo'lib, bu xatti-harakatlarni chegaralaydi. Bu normalar xalq donishmandligi namunolari - maqol va matallarda, hikoya, qissa va boshqa badiiy asarlarda ifodalangan. "Xalq donishmandligi asotir, afsona, doston, qissa, rivoyat, hikoya, ertak, hikmat, hazil, askiya, o'lan, marsiya, topishmoqlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, - deydi R.P.Mamatqulov, - ular bevosita xalq ijodiyoti mahsullaridir. Ammo shaklidan qat'iy nazar, xalq donishmandligi manbalari masalasida, xalq og'zaki ijodi bilan yozma adabiyot va ilmiy meros reprospektiv ma'noda xalq og'zaki ijodiga tayanadi. Boshqacha aytganda, yozma manbalarda mutafakkirlar tomonidan xalq donoligi durdonalariga "ishlov beriladi" va boyitadi" [5,17]. Xuddi shu joyda xalq donishmandligi va ilmiy ijod o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsata olgan. Buning fakti sifatida buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning axloq normalari, xususan va shijoat va rostgo'ylik to'g'risidagi quyidagi so'zlarini keltirishni o'rinli deb hisoblaymiz: "ko'pchilik tomonidan botirlik deb tanilgan xulq, ya'ni urush maydonlarida bahodirlik va turli harakatlarga uchrashni pisand qilmaslik, shijoatning bir turidir. Ammo uning hamma turlari ichida eng yuqori darajasi to'g'ri so'zni so'zlash yoki to'g'ri ishni qilishda o'limni pisand qilmaslikdir. Hammaning tabiatida adolat bevosita saviyali va hamma uning yaxshiligiga kuzatadigan bo'lgan kabi, rostgo'ylik ham shunday. Lekin rostgo'ylikning shirinligini totmagan yoki shirinligini bilsa ham totishni istamaydigan kishi uni sevmaydi." [6,300], Ko'rinib turibdiki, Abu Rayhon Beruniy yuqorida ko'rsatilgan normalarning mohiyati va funksional holatini ko'rsatib bergan.

Axloqiy bilimlarning navbatdagi yanada mohiyatan chuqurlashgan qismi ilmiy retraspektiv yondashishni taqozo qiladigan qismi umuminsoniy axloq prinsiplari va etika kategoriyalaridir. Umuminsoniy axloq prinsiplari axloqiy fikrlash va ifliklar orqali xatti-harakatlarda og'ishmaslikni taqazo qilsa, etika kategoriyalari axloqiy fikrlash va uning normalari orqali xatti-harakatlarning mohiyatini tashkil etadi.

Endi e'tiborni axloqiy bilimlarning ikkinchi tarkibiy qismi - axloq prinsiplariga qaratamiz. "Prinsip" lotincha "principium" so'zidan olingan bo'lib, "asos", "negiz", "ibtido" ma'nolarida ishlatiladi. O'zbek tilida: 1) biror nazariya, ta'limot, dunyoqarash va shu kabilarning asosiy qonun-qoidasi; faoliyat uchun asos qilib olinadigan bosh g'oya, qonun-qoida; 2) xulq-atvor, xatti-harakat me'yorini belgilaydigan, kishi qattiq ushlab olgan va og'ishmay amal qiladigan ichki ishonch, nuqson-nazar, qarash, maslak degan ma'nolarni anglatadi [7,202].

"Tamoyillar nafaqat bitta fan yoki soha, - deydi A.A. Muhammadiyev, balki butun mamlakatda amalda bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalarini belgilashda, mamlakat istiqboli yo'lida amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda rahbariy ko'rsatmalar vazifasini o'taydi" [8,3]. A.A. Muxammadiyev "tamoyil" so'zini prinsip so'zida ishlatgan. Xolbuki "tamoyil" so'zi arabchadan "mayl", "milliylik", "tendensiya" ma'nolarini beradi [9,3].

Axloq prinsiplarini biron-bir shaxs yaratmagan, u muayyan ijtimoiy munosabatlarga muvofiq, moddiy va ma'naviy hayot jarayonida kishilar ijtimoiy turmushining, axloqiy munosabatlarning talablarini birmuncha umumlashgan holda aks ettiradigan axloqiy ong shakllari sifatida vujudga kelgan qonun-qoidalar hisoblanadi. Shunga ko'ra, umuminsoniy axloq prinsiplari deb, jamiyatning ma'naviyatida, ongida ishlab chiqilgan, insonning ma'naviy mohiyatiga, burchiga, hayotning mazmuniga va kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning tabiatiga taaluqli bo'lgan umumiy talablarni aks ettiradigan, insonlar faoliyatining umumiy yo'nalishini ko'rsatib beradigan va muayyan xulq-normalariga asos bo'lib

xizmat qiladigan qonun-qoidalariga aytiladi [4,68]. Bu ta'rif-tavsifda umuminsoniy axloq normalariga nisbatan funksional holati, asos vazifasini o'tashi, dialektik aloqadorligi berilgan.

Yuqoridagi fikrlarga nisbatan mohiyatdan qonuniyatli aloqadorliklar kelib chiqadi. Tamoyillar esa qonuniyatlarga asoslangan holda shakllantiriladi. Shuning uchun tamoyillarning mazmuni obyektivlikka ega bo'ladi va ular qonuniyatlar orqali aniqlanadi deymiz. Ijtimoiy falsafaning predmetidan bir qismi – jamiyat mavjudligi va rivojlanishining korrelyatsion-funksional va substansional qonunlari to'g'risidagi bilimlariga tayanib ish ko'rish, izlanishlar olib borish bu fikrlarning haqqoniyligini tasdiqlaydi.

Insonparvarlik, jamoatchilik, adolat, qonuniylik va vatanparvarlik umuminsoniy aql-ongning asosiy prinsiplaridir. Ular barcha axloqiy normalar shakllanishi va amal qilishining o'q ildizlarini tashkil etadi. Insonparvarlik odamlarga g'amho'rlik qilishni ifodalaydi. Jamoatchilik prinsipi o'zaro yordam, hamkorlik, hamdardlik qilishni aks ettiradi. Adolat prinsipi haqqoniylikni ifodalaydi. Qonuniylik, agar normativ-huquqiy xujjatlar huquqiy bo'lsa, huquqiy normalarga og'ishmay amal qilish demakdir. Vatanparvarlik prinsipi ona yurt, jumladan, ota-onasiga, xalqiga, yashayotgan geografik makoniga sadoqatli, mehrlilik bo'lishni ifodalaydi. Xullas, umuminsoniy axloq prinsiplari axloqning substansional va boshqa muhim qonunlari bilan axloq normalari o'rtasida "ko'prik" vazifasini o'taydi.

Axloqiy bilimlarning navbatdagi, axloqiy normalar va prinsiplardan keyingisi, axloqiy qonunlardir. Undan ham keyingisi axloqiy kategoriyalardir. Ular mohiyat va asos xarakteriga ega bo'lib, ulardan axloqiy qonunlar, axloqiy qonunlardan esa axloq prinsiplari, axloq prinsiplaridan axloq normalari, axloq normalaridan individual axloqiy munosabatlar shakllanadi. Yaxshilik va yomonlik, burch, or-nomus, vijdon, hayotning ma'nosi va baxt tushunchalari axloqshunoslikning asosiy kategoriyalaridir. Bu kategoriyalar axloqiy hayotdagi umumiy va asos bo'luvchi tomonlarni aks ettiradi. Ularni bilish ularning negizida yuz beradigan axloqiy qonuniyatlardan tortib, har bir kishining xatti-harakatini baholashni o'z ichiga oladi. Axloq kategoriyalari jamiyatning, xususan ma'naviy, moddiy, sotsial, siyosiy-huquqiy hayotida amal qiluvchi umuminsoniy axloq normalari va prinsiplarini mustahkamlash, unda yuz beradigan axloqsizlikning har qanday ko'rinishiga murosasiz munosabatda bo'lishning zaruriy, muhim tomonlari, xususiyatlarini aks ettiruvchi eng umumiy tushunchalardir [4,49].

Yaxshilik kategoriyasi kishilarning talablariga to'la javob beradigan ijobiy sifatlarni, yomonlik kategoriyasi esa kishilarning talablariga zid bo'lgan sifatlarni, burch kategoriyasi majburiyatlarni, or-nomus (sha'n) kategoriyasi o'zining maqomini ulug'lashi, nomunosib ishdan xijolat chekishi, vijdon kategoriyasi mas'uliyat tuyg'usini, hayotning ma'nosi, kategoriyasi kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshirishlari, baxt kategoriyasi esa kishining kimdandir va nimadandir qoniqish hosil qilishlarini ifoda etadi.

Xullas, hosil bo'lgan axloqiy bilimlar kishilik tarixida axloqiy ijodkorlik natijasi bo'lib, "insonlarning yaxshi "xulq" larga chaqirib, yomon xulqlardan qaytarmoq uchun yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini bayon qiladigan, bildiradigan ilmdir" [10,3]. Axloqiy bilimlarning kishilik tarixida sayqallanib kelishi uning o'zgaruvchan va qimmatlilari saqlanib qolishini ko'rsatadi.

Qadimgi davrda "Avesto" da aytilgan o'g'itlar islom dini kirib kelishi bilan islomiy axloq, xususan sha'riy normalar bilan transformatsiyalanadi. Sovetlar davrida har qanday diniy axloq "afyun" deya inkor qilinib, uning o'rni majburiy ravishda nigilistik xarakterdagi kommunistik axloq qoidalari o'rnatildi va uning bugungi kundagi salbiy oqibatlari ma'lum bo'lib qoldi.

Axloqiy ijodkorlik kategoriyalarining ikkinchi tarkibiy qismi – axloqiy xususiyatlarga ega bo'lgan odat, udum, marosim va bayramlardir. M.Imomnazarovga ko'ra, xalq badiiy tafakkuri nuqtayi nazaridan marosimlar ikki guruhga bo'ladi. "Xalq marosimlari, - deydi u, - ikki toifaga bo'linadi: biri – asotir marosimlar (mifologik ritual), ikkinchisi – an'anaviy urf-odatlar, ko'proq etiketga oid marosimlar, xalq orasida qabul qilingan rasm-rusumlar. Albatta, kelib chiqishiga ko'ra bu ikki tur marosimlar orasida bog'lanish bo'lishi mumkin, ammo ularning turkumdagi vazifasi (funksional yo'nalishi) jiddiy farq qiladi. Asotir marosim, masalan, o'zbeklardagi yomg'ir chaqirish niyati bilan bog'liq

“Sust xotin” (yoki “Suv xotin”) marosimi oʻz davrida dehqon uchun hayot-mamot masalasi boʻlgan va buning badiiy ijodga aloqasi yoʻq. Hozir xalq tomoshasi sifatida badiiylashtirib ijro etilsa, maqsad butunlay oʻzgaradi. Badiiy ijod ibratga asoslanadi, asosan tarbiyaviy maqsadni koʻzlaydi, asotir marosim esa bevosita amaliy natijalar kutish bilan bogʻliq.” [11,109-110].

Bizningcha, ularning bir qismi mehr-oqibatga undovchi, ikkinchi qismi asosan inson salomatligi va uchinchi qismi esa asosan tabiatni eʼzozlovchi odat-udumlardir. “Bunda qator odatlarimiz, - deydi R.P. Mamatqulov oʻz tadqiqot ishida, - azon aytish, chillali uy, beshikka belash, alla, beshik ketdi, dasturxon fотиha, mehmon kuzatish, kattalarga hurmat, onalarga mehr, qoʻshniga munosabat va boshqalar; marosimlarimiz – roʻza tutish, hayitlar, sovcilik, gashtak, toʻy, xudoyi, ziyorat mushkulkushod kabilarni birinchi turkumga kiritish mumkinligi tahlil qilinadi. Bir qator odat va marosimlar: kiyinish, uyni pokiza tutish, roʻza tutish; baʼzi oʻyin va bayramlarni ikkinchi turkumga: nonni uvul qilmaslik, suvning qadriga yetish, qorxat kabi odatlar va fasl bayramlari (masalan Navroʻz); oʻyinlarni uchinchi turkumga kiritish mumkinligi yoritiladi. Ularning baʼzilari, masalan, Navroʻz bayrami birvarakayiga uchala turkumga xos boʻlishi mumkin”. Demak, axloqiy ijodkorlik natijalari - odat, udum, marosim va bayramlar ham maʼnaviy-madaniy hodisalar sifatida tarbiya tizimida manba va vositalar funksiyalarni bajaradi.

Axloqiy ijodkorlik natijalarining uchinchi qismi – axloqiy xareaterga ega sotsial institut va muassasalardir. Ular quyidagilar: oila, taʼlim-tarbiya maskanlari, boshlangʻich va oʻrta umumiy maktablar, professional taʼlim muassasalari (kasb-hunar maktab, kollej, texnikum); oliy oʻquv yurtlari, axloq tuzatish muassasalari, ommaviy axborot vositalari tizimi, sanʼat muassasalari, diniy tashkilotlar va boshqalar. Ularda axloqiy taʼlim-tarbiya tizimlashtirilgan va tizimlashtirilmagan tarzda olib boriladi. Imom Buxoriy va boshqalar hadisshunoslarning merosini targʻib qilishda va bu bilan aholini axloqiy tarbiyalashda diniy tashkilotlarning oʻrni kattadir.

Demak, axloqiy hayot jamiyat axloqiy madaniyatining sistema tashkil etuvchi substansional elementlari - insonlar, axloqiy ehtiyojlar, axloqiy ong, axloqiy ijodkorlik, axloqiy ijodkorlik natijalarining hayotga tadbiq etilishsiz mavjud boʻla olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yaxshilikov J. Mustaqillik yillarida fuqarolik huquqi tamoyillarini bilishning falsafiy metodologik asoslari. - T.,2018. 53-bet.
2. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. J.Z. -: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 60-bet.
3. Norqoʻziyev S. Axloqning asosiy meʼyorlari. -T.: “Sharq”, 2019.
4. Rustamboyev M.H., Maxammadiyev N.E., Abduxoliqov S.O. Milliy gvardiya xizmatchilari (xodimlari) ning kasb etikasi. -T.: Oʻzbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy – texnika instituti, 2020. 153. 86-87. 68. 49-betlar.
5. Mamatqulov R.P. Oʻzbek xalqi axloqiy qadriyatlarida tabiatga oqilona munosabat va uning hozirgi kundagi ahamiyati. Fal. Fan. Nomzod. ...dissert. avtoreferati. -T., 2006. 17-bet.
6. Abu Rayxon Beruniy. Tanlangan asarlar. II-tom. – T.: “Fan”, 1965. 300-bet
7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. T. –M.: “Ruskiy yazik”, 1981. 202-bet.
8. Muhammadiyev A.A. Fuqarolik huquqi tamoyillarining nazariy va amaliy muammolari. Yurid. Fan.dok. ... diss avtoreferati. -T.,2012. 3-bet.
9. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. T-2. – M.: “Ruskiy yazik”, 1981. 114-bet.
10. Nizomiddin bin Mulla Hasan. Ilmu axloq. -T.: “Yozuvchi”, 1993. 3-bet
11. Imomnazarov M. Milliy maʼnaviyatimiz nazariyasiga chizgilar. –T.: “Sharq”, 1998. 109-110-betlar.